



**JAMIYATDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10437384>

**Keldiyorov Olim Xudayorovich**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**ANNOTASIYA**

Ushbu maqola jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari, jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirishda huquqiy bilimlarning muhim ekanligi, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom hamda barkamol shaxsnii tarbiyalashda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi, Oila eng muhim ijtimoiy vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajarishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar**

Jamiyat, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, oliy mas'uliyat tuyg'usi, fuqarolik nikohi, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabat, oila huquqi normalari, oilaviy huquqiy munosabatlar, oila qonunchiligi.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ  
ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ**

**Келдиёров Олим Худаёрович**

*Самарканд имени Шарофа Рашидова независимый  
исследователь государственного университета*

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются психологические особенности формирования правовой грамотности в обществе, значение правовых знаний в формировании правовой грамотности в обществе, то, что они имеют актуальное значение в воспитании нравственно и морально здорового и всесторонне развитого человека, наиболее важные социальные задачи семьи: создание личности, воспитание детей, воспитание людей физически и



поясняется, что они выполняют задачи улучшения демографических процессов, обеспечения духовной зрелости, их духовного объединения, обеспечения совместного управления, оказания взаимопомощи, обеспечения экономическое и социальное развитие общества.

### Ключевые слова

Общество, обеспечение мира и спокойствия в стране, защита прав и свобод граждан, чувство высшей ответственности, гражданский брак, важнейшие социальные задачи семьи, семейные отношения, нормы семейного права, семейные правоотношения, семейное законодательство .

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMATION OF LEGAL CULTURE IN SOCIETY

**Keldiyorov Olim Khudayorovich**

*Samarkand named after Sharof Rashidov*

*independent researcher of the state university*

### ABSTRACT

This article discusses the psychological features of legal literacy formation in society, the importance of legal knowledge in the formation of legal literacy in society, the fact that it is of urgent importance in raising a morally and morally healthy and well-rounded person, the most important social tasks of the family: creating a person, raising children, raising people physically and it is explained that they fulfill the tasks of improving the demography processes, ensuring spiritual maturity, their spiritual unification, ensuring joint management, providing mutual assistance, ensuring the economic and social development of the society.

### Key words

Society, ensuring peace and tranquility in the country, protecting the rights and freedoms of citizens, a sense of supreme responsibility, civil marriage, the most important social tasks of the family, family relations, norms of family law, family legal relations, family legislation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdag'i "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi



“Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5050-sonli qaroriga<sup>47</sup> muvofiq Konsepsiya ishlab chiqildi. Konsepsiyanı amalgalash oshirish doirasida:

Jamiyatning barcha a'zolarini ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish ishlari “Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliv burchimiz!” konseptual g'oyasi asosida tashkillashtirildi;

ichki ishlar organlarining xodimlarida mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish kabi oliv mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida har bir hududiy ichki ishlar organlarida “vatanparvarlik burchagi” tashkil etildi;

ma'naviy-ma'rifiy ishlar ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi bilan ishslash sohasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi.

Globallashuv va ma'naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etayotgani hech birimizga sir emas. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat»<sup>48</sup> deb bejiz ta'kidlamagan. Jamiyatda mavjud ma'naviy me'yorlar yoshlarimizni jamiyatda o'z o'rinalarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda xulq og'ishini oldini oluvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o'rganar ekanmiz, hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipoteza(faraz)larni, bu sohaga doir nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Yoshlar o'rtasida xulq og'ishini barvaqt oldini olish to'g'risida nafaqat profilaktika idoralari, Ichki ishlar va Sog'liqni saqlash, ta'lim, sport va turizm, madaniyat vazirliklari tomonidan rioya qilingan ijtimoiy nazorat va cheklovlardan pozitsiyasidan kelib chiqib qarash noo'rin. Biz tomonimizdan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan “Yoshlarda xulq og'ishini oldini olish omillari sifatida nimalarni nazarda tutasiz?” nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnoramamizda Oliy ta'lim muassasalari talabalari, Probatsiya xizmati nazoratidagi xulqi og'ishgan yoshlar faol ishtirok etdi.

Jamiyat va davlatning oilaga g'amxo'rliги bizning ijtimoiy siyosatimizning muhim yo'nalishiga aylangan. Oila masalalariga O'zbekiston Respublikasi

<sup>47</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5353841?ONDATE=20.11.2023%2000>

<sup>48</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018. – B.254.



Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida e'tibor berib kelmoqda. Shavkat Mirziyoyevning 29 dekabr 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqida yoshlarning huquqiy tushunchalarini shakllantirish va ta'lim-tarbiya olish jarayonlariga alohida to'xtalib o'tdi: - "Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin "Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqlmaydi", deb bejiz aytmagan.

Yaqinda Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida va Toshkent shahrining Chilonzor tumanida bo'lib o'tgan uchrashuvlarda yoshlارимиз tomonidan bildirilgan dadil fikr va tashabbuslar meni juda quvontirdi.

Ayniqsa, kuni kecha Yoshlar forumida o'g'il-qizlarimizning yonib turgan ko'zlarida ulkan azmu shijoatni, bilimga tashnalik va yangilikka intilishni ko'rib, yanada ruhlandim va ulardan kuch oldim. Ibn Sino bobomiz aytgan dovyurak va botir yoshlар aynan shu farzandlarim ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini, yoshlарimizdagи g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz. Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlарimiz bilan birgalikda barpo etamiz.

Shuni ta'kidlash joizki, oilaning muqaddas tushunchasi ko'plab muammolari bilan hamisha tadqiqotchilar aqlu zakovatini to'lqinlantirib kelgan. Chunonchi, sosiologlar oilani yaratish uchun er va xotinning bo'lishi kifoya qiladimi yoki erkak va ayol ittifoqi oila deb nomlanishi uchun farzandlarning ham bo'lishi shartmi, degan muammo ustida bahslashib keladilar. Yuridik jihatdan buning uncha ahamiyati yo'q. Yuristlar esa, boshqa masala xususida - ya'ni, er va xotinning qonunda ko'zda tutilgan tartib va shartlarga rioya etmay tuzgan ittifoqlarini oila deb hisoblash mumkinmi? degan ma'noda bahs yuritadilar. Bunda gap hatto ular birgalikda ro'zg'or yuritib, o'z farzandlarini tarbiyalayotgan bo'lsalar ham qonuniy asosdagи nikohda ro'yxatdan o'tmasdan uzoq vaqt davomida oshkora ravishda erkak va ayolning birgalikda yashab kelishlari haqida ketayapti. Jiddiy gapiradigan bo'lsak, bunday ittifoq nikoh bo'lolmaydi hamda ota-onalarning bolalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini istisno etganda, hyech qanday yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik nikohi yoki cherkov (masjid) nikoha deb atalgan nikoh yuridik ma'noda oilani dunyoga keltirolmaydi. U faqat onalik va otalik munosabatlarini, ya'ni huquqlarning muayyan hajmi (masalan, ota-



onaning istalgan har biri mulkining meros bo'lib qolishi bo'yicha bolalar huquqi)ni vujudga keltiradigan qon-qarindoshlik aloqalarinigina yuzaga keltiradi. Birga yashovchi hamxonalar (yuridik nuqtai-nazardan ularni er-xotinlar deb atab bo'lmaydi) bir-birlarining mulkini meros qilib ololmaydilar.

Oila uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasidir, jamiyat tuzilishining obyektiv zarur, ajralmas qismidir. Ijtimoiy ma'noda oila odamlarning ijtimoiy jihatdan alohida uyushgan guruhlar, ma'naviy, xo'jalik, maishiy va boshqa turmush shartlari hamda manfaatlari bir xil bo'lgan shaxslar ittifoqidir.

Oila eng muhim ijtimoiy vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajaradi. Ayni oilada inson xarakterining asoslari, mehnatga, ma'naviy va madaniy boyoliklarga munosabat shakllanadi.

Jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdordir. Shu bois u oilani mustahkamlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishda, bolalarni tarbiyalashda unga ko'maklashish, bolali oilalarning hamda kelinkuyovlarning moddiy, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilish yo'lini tutishi lozim.

"Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz", - dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev forumda yoshlar bilan ochiq muloqotda.

Oila bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga, ona va bola manfaatlarini muhofaza etishga, onalikni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar turkumini nazarda tutuvchi huquq oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Oila davlat himoyasiga olingan bo'lib, Konstitusiyada e'lon qilinadi. Mehnatga, fuqarolarga, xo'jalik va moliyaviy ishlarga doir qonunlarda, ijtimoiy ta'minot, sog'likni saqlash, xalq ta'limi va hakazo masalalar xususidagi qonunlarda mazkur qoidalarga yanada aniqlik kiritilgan. Bu o'rinda oila huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Oila huquqi er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, shuningdek oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy me'yorlar tizimi hisoblanadi.



Ammo oilaviy munosabatlarning barchasi ham huquq tomonidan tartibga solinmaydi. Bu munosabatlarning aksariyati axloqiy, ruhiy tusda bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra ularni huquq yo'li bilan tartibga solib bo'lmaydi. Masalan, er-xotinni bir-birini sevishga huquqiy me'yorlar vositasida majbur qilib bo'lmaydi. Biroq huquq oilada yuksak axloqiy vaziyat yaratilishiga erishishga, nikohlanganlar ittifoqini mustahkamlashga yordam bermog'i lozim. Oila huquqi – bu er-xotinlar, qarindoshlar, ota-onalar (farzanlikka oluvchilar) va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni tartib soluvchi huquq tarmog'idir.

Huquq tartibot va yuridik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xodimlar uchun psixologik bilimlarni egallash juda ham muhimdir. Psixologik bilimlar yuridik va huquqiy sohasiga doir ma'lumotlarning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ular nafaqat huquq tartibot va yuristlar uchun mavjud bo'lgan maxsus muammolarni hal etishga yordam beradi, balki ish bilan birgalikda "aybdorlik", "jinoyatchi shaxsi", "jinoiy xulq - atvor" kabi asosiy jinoiy huquqiy tushunchalarning yechimini huquqiy-yuridik psixologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni talab etadi.

Shunday qilib, xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, oilaviy-huquq ma'nodaga oila deganda nafaqat sosiologik ahamiyatga ega bo'lgan har qanday oila, balki uning a'zolari o'rtasida amaldagi qonunchilikka muvofiq o'zaro huquq va majburiyatlarning kelib chiqishiga olib keladigan oilagina tushuniladi. Oila huquqi oila doirasidan chiqadigan munosabatlarni ham tartibga soladi. Bu munosabatlar ham oila huquqi predmetini tashkil qiladi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar muayyan o'ziga xoslikka ega. Ular voqyea (hodisa)lardan, xususan uning holati kabi turlaridan iborat yuridik faktlardan kelib chiqadi. Modomiki bola tug'ilishi, qarindoshlik holati vash u kabi voqyea hodisalar inson irodasidan tashqari huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarar ekan, ular ishtirokchilarining o'zaro huquq va majburiyatlari ham asosan ular ishtirokchilari irodasi bo'yicha emas, balki qonun ko'rsatmasi bo'yicha shakllanadi. Masalan qonunda ota-onalarning o'z voyaga yetmagan bolalariga nisbatan ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan va ularni tomonlar irodasi bo'yicha o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Shu bilan birga oilaviy huquqiy munosabatlarning ular ishtirokchilarining irodasi bo'yicha kelib chiqadi. Bu turdagи huquqiy munosabatlarda ularning subyektlari nafaqat o'zlariga tegishli huquq va majburiyatlarni ko'ngilli ravishda qabul qiladilar, balki, qoida tariqasida, istalgan paytda o'z hohishiga ko'ra ular mazmunini o'zgartirishlari mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda er-xotinlarning qonunda o'rnatilgan doiralarda o'z huquq va majburiyatlarini, xususan o'z



mulkining u yoki bu haqiqiy tartibotini erkin va teng aniqlashlari asosida nikoh huquqiy munosabatlari oddiy holat hisoblanadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar faqat fuqoralar o'rtasida kelib chiqadi. Ikkinchidan oilaviy huquqiy munosabatlarda fuqoralarning o'zlari ham maxsus sifatlarda, masadan, er-xotin, ota-onalar, bolalar, nevaralar ishtirok etishadi. Shu munosabat bilan oilaviy huquqiy munosabatlar ularning qanday asoslar bilan qaror topishidan qat'iy nazar, shaxsiy tavsifga ega bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabrь. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-son, 426-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. - 6 (766)-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // www.uza.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B.254.
6. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
7. Qodirov O.S. "O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi" // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2020, - 155 b.
8. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, 1- son, 23-26- b.
9. Feldshteyn D.I. "Общие вопросы образования" Obrazovanie i nauka. 2013. № 9 (108).
10. Safarovich Q.O. et al. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish masalalari // PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.

#### **Internet saytlari:**

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/>
2. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>



- 
3. <https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>
  4. <https://lex.uz/ru/docs/-5353841?ONDATE=20.11.2023%2000.>